

**O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil
IV-chorak budjet xarajatlarining maqsadli indikatorlari ijrosi bo'yicha
taqdim etilgan hisobot tahlili va natijalarini baholash to'g'risida
MA'LUMOTNOMA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.I2.2024-yildagi PQ-455_son qarori 7-ilovasi 33-bandi bilan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-2027-yillar uchun rivojlantirish dasturlari va budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan.

Mazkur Qaror bilan 2025-yil diniy-ma'rifiy soha uchun **1 ta "yakuniy natija ko'rsatgichi"** hamda **17ta "Bevosita(to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatgichi"** maqsadli indikatorlarining prognoz ko'rsatkichlarida belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yilgi **Strategik maqsadi:** diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «Jaholatga qarshi ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash.

Din ishlari bo'yicha qo'mita hisobot ko'rsatkichlari bo'yicha davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning 2025-yil uchun **163,7 mlrd. so'm** mablag' tasdiqlangan bo'lib, aniqlangan reja **236,9 mlrd so'mni** tashkil qilgan. O'zgartirishlarni hisobga olgan holda jami **73,2 mlrd so'm** ko'p mablag' rejalashtirilganligini ma'lum qilamiz. Jumladan:

- joriy xarajatlar yaniy, diniy-ma'rifiy soha muassasalarini moliyalashtirish uchun **236,9 mlrd so'm** rejalashtirilgan;

2025-yilning IV-chorak ko'rsatkichlari bo'yicha **228,9 mlrd. so'm** mablag' diniy-ma'rifiy soha muassasalarini rivojlantirish uchun sarflangan. Aniqlangan rejaga nisbatan **8,0 mlrd. so'm** kam sarflangan, rejaga nisbatan **96,62 foizga** bajarilgan. Jumladan:

- joriy xarajatlar yaniy, diniy-ma'rifiy soha muassasalari xarajatlari uchun **228,9 mlrd. so'm** sarflangan;

Ajratilgan mablag'lar hisobiga "Diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash" buyicha Strategik maqsad bajarilishi natijasida **1 ta**

yakuniy natija ko'rsatgichi"ni hamda **17ta "Bevosita(to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatgichi"**ni yaxshilash ko'zda tutilgan. Jumladan:

Diniy mazmundagi materiallar yuzasidan dinshunoslik ekspertizasi xulosalarini tayyorlash 2025-yilda reja bo'yicha 7600 ta tasdiqlangan bo'lib, shundan joriy yilning 4 ta choragida 13 555 tani tashkil etib, reja ko'rsatgichlari 178,36 % ortig'i bilan bajarilgan.

Ko'rsatkichlarning qariyb ikki baravarga yaqin oshib bajarilishi, avvalo, internet va raqamli axborot makonida diniy mazmundagi materiallar hajmining keskin ortgani bilan izohlanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va turli axborot platformalarida tarqalayotgan matn, audio va video kontentning ko'payishi natijasida ularni dinshunoslik ekspertizasidan o'tkazishga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshgan.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud-tergov idoralari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ekspertiza tayinlash amaliyotining faollashuvi ham bajarilgan ishlar sonining keskin ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ushbu holat diniy mazmundagi materiallarga nisbatan nazorat va huquqiy baholash mexanizmlari kuchaytirilganini ko'rsatadi.

reja ko'rsatkichlarining 178,36 foizga bajarilishi bir tomondan ijobiy natija bo'lsa, ikkinchi tomondan institutsional yuklama keskin oshganini anglatadi. Dinshunoslik ekspertizasining murakkabligi, har bir materialni chuqur ilmiy, fiqhiy va tarixiy jihatdan tahlil qilish zarurati inobatga olinganda, bunday yuqori hajm:

*ekspertlarning ish yuklamasi ortishi,
xulosalar tayyorlashda vaqt bosimi kuchayishi,
ayrim hollarda sifatga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini yuzaga keltirishi
mumkin.*

Mazkur holat ekspertiza jarayonlarida mehnat resurslari, mutaxassislar soni va tashkiliy imkoniyatlar reja ko'rsatkichlariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozimligini ko'rsatadi.

Hozirgi holatda mazkur yo'nalishdagi faoliyat asosan miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholanmoqda. Biroq dinshunoslik ekspertizasi xulosalari huquqiy va ijtimoiy jihatdan yuqori mas'uliyatga ega hujjatlar bo'lganligi sababli, ularning:

*ilmiy asoslanganligi,
xolisligi va betarafligi,
terminologik aniqligi,
sud-huquqiy jarayonlarda qo'llanishga yaroqliligi*

kabi sifat ko'rsatkichlari alohida baholanishi zarur. Auditorlik nuqtayi nazaridan, sifat mezonlari yetarlicha shakllanmagan holatda yuqori miqdoriy ko'rsatkichlar tizimli xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi diniy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash bo'yicha 2025-yilga 90 ta tasdiqlangan bo'lib, shundan 2025-yilning 4 ta choragida 90 tani tashkil etib, reja ko'rsatkichlari 100 % ga bajarilgan.

Axborot-tahlil va targ'ibot ishlarini tashkil etish boshqarmasi tomonidan joriy yilda O'zbekiston va xorijiy davlatlarda diniy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha birinchi va ikkinchi chorakda 22 tadan hamda uchinchi va to'rtinchi chorakda 23 tadan jami 90 ta axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash rejalashtirilgan edi, shunga binoan boshqarma tomonidan 2025-yilda 90 ta axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanib, reja ko'rsatkichlari 100 % ga bajarilgan.

Mazkur yo'nalish bo'yicha reja ko'rsatkichlarining bajarilishi ichki va tashqi diniy-ijtimoiy jarayonlarni muntazam monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilganini hamda tahliliy axborotlarga bo'lgan ehtiyoj o'z vaqtida qondirilganini ko'rsatadi. Tayyorlangan ma'lumotnomalar tegishli tuzilmalarni dolzarb axborot bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilish jarayonida axborot-tahliliy asos yaratishga xizmat qilgan.

Mazkur ko'rsatkichlar belgilangan reja asosida ijro etilgan bo'lib, rejalashtirish va amaliy bajarish o'rtasida tafovutlar aniqlanmadi. Umuman olganda, vazifa belgilangan hajmda va o'z vaqtida bajarilgan deb xulosa qilinadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va aholida terrorizm va ekstremizmga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha 2025-yil uchun 63 000 ta reja ko'rsatkichi tasdiqlangan. Joriy yilning 4 ta choragi davomida amalda 65 000 ta diniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan bo'lib, belgilangan reja ko'rsatkichiga nisbatan 2 000 taga ortiq ijro ta'minlangan. Natijada mazkur yo'nalish bo'yicha reja 103,17 foiz bilan bajarilgan.

Mazkur ko'rsatkichlarning bajarilishi diniy-ma'rifiy faoliyatni tizimli ravishda rejalashtirish, hududlarda profilaktik tadbirlarni faollashtirish hamda aholi o'rtasida ekstremistik va terroristik g'oyalarga qarshi tushuntirish ishlarini kuchaytirish borasida izchil ishlar olib borilganidan dalolat beradi. Tadbirlarning turli auditoriyalar — yoshlar, mehnat jamoalari, ta'lim muassasalari hamda mahalla faollari ishtirokida o'tkazilgani ularning qamrovini kengaytirishga xizmat qilgan.

Reja ko'rsatkichlari belgilangan hajmda va o'z vaqtida bajarilgan bo'lib, ortiqcha ijro ko'rsatkichlari tashkiliy ishlarning samaradorligini ko'rsatadi. Shu

bilan birga, mazkur yo'nalishda faoliyat samaradorligini yanada oshirish maqsadida diniy-ma'rifiy tadbirlarning mazmuniy sifati, ta'sirchanlik darajasi hamda profilaktik natijadorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan vazifalar to'liq va belgilangan reja doirasida ijro etilgan bo'lib, 2025-yil bo'yicha mazkur yo'nalishda reja ko'rsatkichlari bajarilgan deb baholanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va aholida terrorizm va ekstremizm qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlar birinchi yarim yillikda rejaga muvofiq amalga oshirildi. Unga ko'ra, ta'lim muassasalarida yozgi ta'tilga chiqish sababli tadbirlarni nisbatan kamroq o'tkazilgan. Yilning ikkinchi yarim yilligida tadbirlar soni rejaga muvofiq o'tkazilib, natijalar belgilangandanda afzalroq natija berdi.

Internet tarmog'ida din omili bilan bog'liq mavzulardagi chiqishlar yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlash bo'yicha 2025-yilga **260 ta** tasdiqlangan bo'lib, shundan joriy yilning 4 ta choragida **301 tani** tashkil etib, reja ko'rsatkichlari **115,77 % ortig'i bilan bajarilgan.**

Internet tarmog'ida din omili bilan bog'liq mavzular yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlash — yuqori darajada diqqat va muntazamlikni talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Kunlik tahliliy faoliyatni amalga oshirishda birinchi navbatda kontentni to'plash va kuzatish, ya'ni manbalarni monitoring qilish jarayonning asosiy va dastlabki bosqichini tashkil etadi.

Ko'rsatkichlarning oshib bajarilishi internet tarmog'ida din omili bilan bog'liq axborotlar hajmining ortib borayotgani, mazkur mavzularda tezkor va tizimli monitoring olib borilganligi hamda aniqlangan materiallar yuzasidan o'z vaqtida tahliliy munosabat bildirilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, axborot platformalari va messenjerlarda diniy mazmundagi kontentning faollashuvi tahliliy materiallar sonining ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalar to'liq va sifatli ijro etilib, reja ko'rsatkichlari ortig'i bilan ta'minlandi. Bu esa internet makonida diniy mavzularga oid axborotlarni nazorat qilish, tahlil qilish va ularga nisbatan profilaktik choralarni kuchaytirish borasidagi ishlar samaradorligi oshganidan dalolat beradi.

Diniy soha xodimlarining internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dolzarb mavzulardagi targ'ibot chiqishlarini tashkil etish bo'yicha 2025-yilga **10000 ta** tasdiqlangan bo'lib, shundan joriy yilning 4 ta choragida **10082 tani** tashkil etib, reja ko'rsatkichlari **100,82% bajarilgan.**

Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur ko'rsatkichning to'liq va ortig'i bilan bajarilishi diniy soha xodimlarining raqamli platformalardagi faolligi oshgani, targ'ibot ishlarining tizimli rejalashtirilgani hamda internet va ijtimoiy tarmoqlarda dolzarb mavzularga bo'lgan ehtiyojning ortgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, reja ko'rsatkichlari doirasida bajarilgan ishlar miqdor jihatidan ijobiy baholanishi bilan birga, targ'ibot chiqishlarining mazmuni, qamrovi va auditoriyaga ta'sir darajasini baholash zarurligi mavjudligi aniqlanadi.

Mazkur yo'nalishda reja ko'rsatkichlari asosan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida bajarilgan bo'lib, kelgusida targ'ibot chiqishlarining sifat ko'rsatkichlari, xususan, auditoriya qamrovi, foydalanuvchilar bilan interaktivlik darajasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda aks sado berish ko'rsatkichlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan vazifa o'z vaqtida va belgilangan hajmda ijro etilgan bo'lib, reja ko'rsatkichlari bajarilgan deb topiladi. Shu bilan birga, mazkur faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal shaxslar tomonidan uyushtirilayotgan chiqishlarga qarshi tezkor ilmiy asoslangan aksiltarg'ibot (raddiya) tadbirlarini tashkil etish bo'yicha 2025-yilga 6000 ta tasdiqlangan bo'lib, shundan joriy yilning 4 ta choragida 6 049 tani tashkil etib, reja ko'rsatkichlari 100,82% bajarilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, reja ko'rsatkichlarining to'liq va ortig'i bilan bajarilishi internet va ijtimoiy tarmoqlarda radikal mazmundagi chiqishlar sonining ortishi, ularga nisbatan tezkor monitoring mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilgani hamda aniqlangan holatlar yuzasidan ilmiy asoslangan raddiyalarni tayyorlash amaliyoti tizimlashtirilgani bilan bog'liq. Mazkur faoliyat radikal g'oyalar tarqalishining oldini olishda muhim profilaktik ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mazkur tadbirlar asosan miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholangan bo'lib, aksiltarg'ibot materiallarining mazmuniy sifati, ilmiy dalillarga tayanish darajasi, maqsadli auditoriyaga yetib borish samaradorligi hamda axborot makonida ta'sir ko'rsatish natijalarini baholash mezonlarini kuchaytirish zarurati mavjudligi aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan vazifalar to'liq va belgilangan hajmda ijro etilgan bo'lib, reja ko'rsatkichlari bajarilgan deb baholanadi. Kelgusida mazkur yo'nalishda aksiltarg'ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida ularni sifat ko'rsatkichlari asosida baholash, monitoring va tahlil mexanizmlarini yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

Diniy soha xodimlari ishtirokida «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasi ostida jamiyat uchun dolzarb mavzular hamda ijtimoiy illatlarning oldini

olishga yo'naltirilgan ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha 2025-yilga 55000 nafar tasdiqlangan bo'lib, shundan joriy yilning 4 ta choragida 61000 nafarni tashkil etib, reja ko'rsatgichlari 110,91% bajarilgan.

Tahlillarga ko'ra, ko'rsatkichlarning sezilarli darajada ortig'i bilan bajarilishi "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasining jamiyatda dolzarbligi oshgani, hududlarda ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilgani hamda diniy soha xodimlarining aholining turli qatlamlari bilan bevosita muloqotdagi faolligi kuchaygani bilan izohlanadi. Shuningdek, ta'lim muassasalari, mahallalar va mehnat jamoalarida o'tkazilgan tadbirlar qamrovni kengaytirishga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda erishilgan natijalar asosan qamrov soni orqali baholangan bo'lib, ma'rifiy tadbirlarning mazmuniy sifati, ishtirokchilarga ta'sir darajasi, ijtimoiy xulq-atvor va qarashlardagi ijobiy o'zgarishlarni baholash mezonlarini joriy etish zarurligi aniqlanadi. Tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida ularning mavzulari, formatlari va auditoriya ehtiyojlariga mosligi bo'yicha tahlillarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan vazifa to'liq va ortig'i bilan ijro etilgan bo'lib, reja ko'rsatkichlari bajarilgan deb baholanadi. Kelgusida mazkur yo'nalishda ma'rifiy tadbirlarning sifat ko'rsatkichlariga asoslangan baholash tizimini takomillashtirish, monitoring va tahlil mexanizmlarini yanada kuchaytirish tavsiya etiladi.

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo'yicha bosh mutaxassis:**



N.Saydullayev


O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasiga
2025-yilda belgilangan budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar ijrosi jarayonida
yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etish yuzasidan
CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2025-yil uchun prognoz	2025 -yil davomida bajarilishi	Bajarilish ko'rsatgichi foizda	Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy va boshqa xavflar
	O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi	mlrd so'm	163,70	228,90	96,62 %	xavf mavjud emas
1	Strategik maqsad: Strategik maqsad: diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «Jaholatga qarshi ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash	0	0	0	0	
	<i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i>	0	0	0	0	0
	Diniy-ma'rifiy tadbirlarda fuqarolar ishtiroki (jami ijtimoiy faol aholi soniga nisbatan)	foiz	35	35	100 %	xavf mavjud emas
	<i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>	0	0	0	0	0
2	Haj va Umra safariga boruvchilarga qulay shart-sharoit yaratish va ziyoratlarini tashkil etish	nafar	62000	62400	100,65 %	xavf mavjud emas
3	Respublikadagi muqaddas qadamjo va ziyoratgoh ob'ektlari haqida ma'lumot beruvchi nashrlar chop etish	dona	14	15	107,14 %	xavf mavjud emas

4	Diniy mazmundagi materiallar yuzasidan dinshunoslik ekspertizasi xulosalarini tayyorlash	ta	7600	13 555	178,36 %	xavf mavjud emas
5	O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi diniy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash	ta	90	90	100 %	xavf mavjud emas
6	O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va aholida terrorizm va ekstremizmga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish	dona	63000	65 000	103,17 %	xavf mavjud emas
7	Internet tarmog'ida din omili bilan bog'liq mavzulardagi chiqishlar yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlash	ta	260	301	115,77 %	xavf mavjud emas
8	Diniy soha xodimlarining internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dolzarb mavzulardagi targ'ibot chiqishlarini tashkil etish	ta	10000	10 082	100,82 %	xavf mavjud emas
9	Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal shaxslar tomonidan uyushtirilayotgan chiqishlarga qarshi tezkor ilmiy asoslangan aksiltarg'ibot (raddiya) tadbirlarini tashkil etish	ta	6000	6 049	100,82 %	xavf mavjud emas
10	Diniy-ma'rifiy soha hamda davlat va jamoat tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish	nafar	1600	1 990	124,38 %	xavf mavjud emas
11	Diniy tashkilotlarni (masjid, diniy ta'lim muassasalari) malakali kadrlar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish	nafar	300	324	108 %	xavf mavjud emas
12	Diniy soha xodimlari ishtirokida «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasi ostida jamiyat uchun dolzarb mavzular hamda ijtimoiy illatlarning oldini olishga yo'naltirilgan ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish	ta	55000	61 000	110,91 %	xavf mavjud emas

13	Diniy o'quv yurtlari qoshidagi Qur'on o'qish kurslarida fuqarolar ta'lim olishini tashkil etish	nafar	13500	15 300	113,33 %	xavf mavjud emas
14	O'zbekiston vakillarining (islomshunos va dinshunos olimlar, tadqiqotchilar) mamlakatimiz va xorijda o'tkaziladigan diniy sohaga oid xalqaro tadbirlarda ishtirokini ta'minlash	nafar	90	100	111 %	xavf mavjud emas
15	Xotin-qizlarning turli ma'naviy tahdid va ta'sirlarga tushib qolishini oldini olish, ularda qat'iy e'tiqod va qarashlarni o'zida mujassam etgan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish	ta	2600	3 000	115,38 %	xavf mavjud emas
16	Davlat va nodavlat teleradiokanallar, gazeta va jurnallar orqali teleko'rsatuv, radioeshittirish, matbuot, davriy nashrlar hamda internet tarmog'ida diniy-ma'rifiy sohaga doir chiqishlarni (brifing, intervyu, matbuot anjumani, maqola) amalga oshirish	dona	20	30	150 %	xavf mavjud emas
17	Diniy-ma'rifiy sohada o'tkazilayotgan tadbirlar to'g'risidagi xabar, yangilik va infografikalarni sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilib borish	dona	40	50	125 %	xavf mavjud emas
18	Noislomiy diniy tashkilotlar rahbarlari ishtirokida diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish	ta	6	6	100 %	xavf mavjud emas

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo'yicha bosh mutaxassisi**



N.Saydullayev